



ZAMONAVIY INTERNET MAKONIDA AXBOROT ALMASHINUVI: VEB-SAYTLAR VA BLOGLAR MISOLIDA

To‘lanboyeva Gulsanamxon Azizjon qizi

Ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya; Zamonaviy internet makoni axborot almashinuvining asosiy platformasiga aylangan bo‘lib, bunda veb-saytlar va bloglar muhim o‘rin egallaydi. Veb-saytlar rasmiy va tizimli axborotni taqdim etsa, bloglar shaxsiy fikr va tajriba almashuviga asoslangan interaktiv muloqotni ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy internet makoni, axborot almashinuvi, veb-sayt, blog (veb-blog), onlayn platforma, raqamli muloqot, interaktivlik, foydalanuvchi kontenti.

Annotation: The modern internet space has become the main platform for information exchange, in which websites and blogs play an important role. While websites provide official and structured information, blogs ensure interactive communication based on the exchange of personal opinions and experiences.

Keywords: Modern internet space, information exchange, websites, blog (web blog), online platform, digital communication, interactivity, user-generated content.

Veb-sayt foydalanuvchilari istalgan qurilma yordamida veb-saytdan foydalanishlari mumkin. Tarmoq foydalanuvchilari veb-saytga kirish uchun barcha qurilmalarda ishlaydigan ilova – veb-brauzerlarni o‘rnatish kifoya²⁶.

Ingliz internet va foydalanuvchilar orasida alohida o‘rniga, o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan saytlar haqida ma‘lumot berib o‘tamiz.

Vikipediya – (wikipedia.org): turli sohalarga oid keng qamrovli ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan, bepul foydalanish mumkin bo‘lgan internet ensiklopediyasidir. Ushbu platformada 300 dan ortiq tillarda maqolalar mavjud bo‘lib, ular orasida ingliz tilidagi bo‘lim eng yirigi hisoblanadi va unda 6 milliondan ziyod maqola jamlangan.²⁷ Amazon (amazon.com): butun dunyo bo‘ylab xaridor va sotuvchilarni birlashtiruvchi, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi yirik xalqaro elektron savdo platformasidir. Unda turli toifadagi mahsulotlarni sotib olish va sotish imkoniyati mavjud. BBC yangiliklari (bbc.com/news): global miqyosdagi eng muhim va so‘nggi yangiliklarni foydalanuvchilarga yetkazib beruvchi nufuzli axborot manbalaridan biridir. Sayt yangiliklarni matn, audio, video, tasvirlar hamda jonli efirlar orqali taqdim etadi. Facebook (facebook.com): insonlarga do‘stlari, oila a‘zolari va turli jamoalar bilan muloqot qilish, axborot almashish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoq hisoblanadi.

²⁶ <https://entri.app/blog/website-introduction-types-history-notes-pdf/>

²⁷ <https://en.wikipedia.org/wiki/Wikipedia>



O'zbek auditoriyasiga keladigan bo'lsak, internet foydalaniluvchilari orasida Kun.uz, Olx.uz, Daryo.uz kabilar anchagina mashxur. Kun.uz (kun.uz): O'zbekiston va xalqaro miqyosdagi voqea-hodisalarni o'zbek tilida yoritib boradigan, keng auditoriya orasida mashhurlikka ega axborot portallaridan biridir. Olx.uz (olx.uz): mamlakat hududida turli mahsulotlar hamda xizmatlarni xarid qilish yoki sotishni qulay tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi onlayn savdo maydonchasidir. Daryo (daryo.uz): o'zbek tilida faoliyat yurituvchi, dolzarb va muhim yangiliklarni muntazam ravishda taqdim etib boradigan ommabop axborot sayti hisoblanadi. UzTEA (uzedu.uz): O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli bo'lib, ta'lim tizimiga oid rasmiy hujjatlar, resurslar va zarur ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazib beruvchi veb-platformadir.

Internet makonida an'anaviy veb-saytlardan tashqari bloglar, ya'ni veb-bloglar ham keng tarqalgan. Bugungi kunda ularning shakl va yo'nalishlari juda xilma-xil bo'lib, har bir blog ma'lum axborotni yetkazishga xizmat qiladi. Bloglar asosan eng so'nggi yangiliklar, shaxsiy qarashlar yoki tajribalarni foydalanuvchilarga tezkor tarzda ulashadigan onlayn axborot manbasi hisoblanadi:

Shaxsiy ovoz: bloglar ko'pincha mualliflarning shaxsiy stilida bo'lib, ularning o'z fikrlarini to'gridan to'g'ri ifoda etilgan va blogni o'z xohishiga ko'ra yuritiladi. Doimiy yangilanishlar: Bloglar muntazam ravishda yangi xabarlar bilan yangilanadi, ular matn, rasm, videodan iborat bo'lishi mumkin. Interaktivlik: o'quvchilar blog postlari bilan sharhlar, like - yoqtirishlar orqali muloqot qilishlari, turli munozaralar qilishlari mumkin. Arxivlash: eski xabarlar arxivlanadi, toki muallif uni o'zi o'chirmagunga qadar o'chib ketmaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga eski kontentni topish, zarur bo'lsa, undan foydalanish imkonini beradi. Giperhavola: bloglar agar boshqa bloglardan, manbalardan ma'lumot olinsa, ularga havola berish yoki o'sha manbaga oson o'tish uchun giperhavolalar qo'yiladi. Internet makonida an'anaviy veb-saytlardan tashqari bloglar, ya'ni veb-bloglar ham keng tarqalgan. Bugungi kunda ularning shakl va yo'nalishlari juda xilma-xil bo'lib, har bir blog ma'lum axborotni yetkazishga xizmat qiladi. Bloglar asosan eng so'nggi yangiliklar, shaxsiy qarashlar yoki tajribalarni foydalanuvchilarga tezkor tarzda ulashadigan onlayn axborot manbasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.U.Urokov. Internetda muloqot qilish usullari// Innovation: the journal of social sciences and researches. Volume 1, Issue 4, 2023.40 January, 2023.
2. Internetda muloqot qilishning asosiy usullar. Internet aloqasi vositalari. Totrdlo.ru.



3. Real Life in Real Time: Live Streaming Culture: Johanna Brewer, Bo Ruberg, Amanda L. L. Cullen, Christopher J. Persaud, doi:10.7551/mitpress/14526.001.0001. ISBN 9780262374750. The MIT Press 2023

4. <https://entri.app/blog/website-introduction-types-history-notes-pdf/>

5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Wikipedia>